

Airbus konsorsiumi vakillari bilan uchrashuv

2025 13 Iyun

Kecha Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Uzbekistan Airways bosh ofisida Airbus konsorsiumi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.





Tomonlar havo kemalari parkini kengaytirish, texnik xizmat ko'rsatish va zamonaviy aviatsiya yechimlarini joriy etish sohasidagi hamkorlik va kelajakdagi o'zaro munosabatlar istiqbollarini muhokama qildilar.





Uzbekistan Airways o'z yo'lovchilariga yanada yuqori darajadagi qulaylik, xavfsizlik va innovatsiyalarni ta'minlashga intilib, jahonning yetakchi aviatexnika ishlab chiqaruvchilari bilan faol muloqotni davom ettirmoqda.



